

**BUXORO VILOYAT VOBKENT TUMAN MIKROTOPONIMIYASI MAVZUVIY GURUHLARINING O'RGANILISHI****M .O.Xayrullayeva***(Buxoro davlat universiteti o`qituvchisi)*

**Annotatsiya:** *Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining urug' va qabilalarni, ularning shahobcha va tarmoqlarini ilmiy o'rganishda ko'plab mashhur rus tarixchi va tilshunoslarning asarlaridagi bu masalaga oid fikr va mulohazalar muayyan qimmatga ega. Jumladan, Buxoro o'lkamizning yillar davomida jahon tafakkuri ma'naviy, madaniy, va diniy qadriyatlarini taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan, shariflik nomiga sazovor bo'lgan muqaddas joylarimizdan biridir. Uning toponimiyasini har tomonlama o'rganish nafaqat lingvistik tadqiqotlar uchun, balki Vobkent tumani tarixi va madaniyatini chuqur o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Tayanch tushunchalar:** *toponim, etnonim, etnotoponim, mikrotoponim, urug'*

Vobkent tuman mikrotoponimiyasida turli mavzu yo'nalishlariga xos toponimlarni kuzatish mumkin. Bunga izlanishlar va o'rganishlar davomida yaqqol amin bo'ldik. To'plangan faktlar asosida quyida keltirilgan xulosalarga kelindi.

Vobkent mikrotoponimiyasida kasb-hunar bilan bog'liq toponimlar hamda etnominlar bilan aloqador toponimlar alohida o'rin egallaydi. maqolamizning davomida mana shu ikki guruh toponimlarni tahlil etamiz.

Kasb-hunar bilan bog'liq toponimlar.

Arobasozlar – ikki qismdan iborat toponim. O'tmishda bu yerda yashagan aholining kasbi-korini ifodalaydi. Aslida “aravaso” shaklida bo'lishi kerak. Bu qishloq aholisi arava yasash va tuzatish bilan shug'ullangan. Qishloq hududida aravasoqlik ustaxonalari ham bo'lgan.

Baqqolon – ikki qismdan tashkil topgan toponim. O'tmishda aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan turli xildagi ro'zg'or buyumlari hamda oziq-ovqat mahsulotlarini sotuvchi kishi baqqol, uning do'koni joylashgan joy esa boqqollik deb yuritilgan. Mana shunday joylardan biri Baqqolon qishlog'idir. Bu qishloq ahli Buyuk ipak yo'li atrofida do'kon qurib, savdogarlar karvonlariga o'z mahsulotlarini chiqarib sotishgan.

Bo'yrobof – ikki qismli toponim. Bu qishloqning atrofi suv, tashlandiq ko'llardan iborat bo'lgan, qamishlar o'sgan, aholi avvaliga o'zlaridagi mahalliy materiallardan, so'ngra esa uzoq-uzoqdagi ko'llarda o'sgan qamishlarni o'rib olib kelib, asosan, bo'yroboflik bilan shug'ullanganlar. Bo'yra – palos ostidan tashlanadigan qamishdan to'qiladigan bir mato bo'lib, yerdan chiqadigan namlarni saqlagan.

Dukchilar – uch qismdan tashkil topgan toponim. O‘zbek tilida duk so‘zi bo‘lib bu asbob to‘quvchilikda ishlatiladi. Ana shu asbobni yasovchilarni dukchilar deb ataganlar. Sekin-asta bu so‘z xalq tilida dukchi deb atala boshlagan. Dukchilar qishlog‘i nomi ana shu kasb-hunar egalariga sifat berib atalgan.

Chitgaron – ikki qismdan tashkil topgan toponim. Bu yerda, asosan, hunarmandlar, ayniqsa, to‘quvchi, bazzozlar yashab o‘tishgan. Ular o‘zlari to‘qigan bo‘z va surplardan chit gazlamalari tayyorlab sotish bilan shug‘ullanganlar. Bu yerda usto gulburlar, chitga gul bosuvchilar o‘tgan. Shu bois qishloqqa Chitgaron nomi berilgan.

Mirishkor – toponim ikki qismdan iborat. Dehqonchilikning sabzavotchilik va polizchilik sohasi ustalarini mirishkor deb ataydilar. Aytishlaricha, bu qishloqda yashaganlarning ota-bobolari o‘z kasbining ustasi mirishkor dehqon bo‘lgani uchun ham ular yashagan qishloqni shu nom bilan ataganlar.

Charmgaron – ikki asosli toponim hisoblanadi. Bu manzilda, asosan, chorva mollari terisini qayta ishlab, sifatli charmlar tayyorlovchi hunarmandlar yashagan. Qishloq nomi ham ana shu hunarmandlarga sifat berilib atalgan.

O‘ba – bir qismdan iborat toponim. Bu manzilda ham asosan tuproq – loy va gildan turli uy-ro‘zg‘or buyumlari yasash bilan shug‘ullanuvchi aholi yashagan. O‘baning gili bilan tandirlar yasaganlar va yara-chaqalarni davolash uchun foydalanganlar. Kulolchilik bilan mashg‘ul bu qishloq O‘ba deb ataganlar.

Etnominlar bilan aloqador toponimlar.

O‘zbekon – O‘zbeklar. Tub aholisi o‘zbek millatiga mansub kishilar istiqomat qilgan hudud nomi. Bu yerga o‘rta asrlarda Dashti Qipchoq o‘zbeklari ko‘chib kelib yashaganliklari uchun O‘zbekon deb atalgan.

Nayman – qishloq nomi. o‘zbeklarning Nayman urug‘i nomi bilan atalgan. Qadimda turkiy va mo‘g‘ul xalqlari tarkibida qadimiy qabilalardan biri nayman deb atalgan. O‘zbek, qozoq, qirg‘iz, no‘g‘oy, oltoy va boshqa turkiy xalqlar tarkibida naymanlar yirik qabila, qabila uyushmasi sanalgan. Naymanlar o‘zbek xalqining saroy qabilasi bilan ittifoq, yonmayon yashagan. Shu bois ularni naymansaroy ham deb atashgan. Mo‘g‘ul tilida nayman so‘zi “sakkiz” ma‘nosini bildirgan. Shu ma‘no tufayli naymanlarni sakkiz urug‘, qabila turkiy xalq deb ham izohlashgan. Nayman etnonimi do‘rman, oqman, qaraman, yomson, baqman, so‘qman, cho‘qman, shoman, turkman, zarman kabi o‘zbek urug‘ nomlari bilan bir xil tuzilish va yasalishga ega. Etnonimlarning bosh qismidagi so‘zlar boshqa-boshqa. So‘nggi qismi bo‘lmish man/mon so‘zi esa turkiy tillarning o‘tmishida odam(lar), kishi(lar), urug‘ ma‘nosini bildirgan.

Saroylar – saroy o‘zbek qavmlaridan birining nomi bo‘lib, qishloqni shu urug‘ nomi bilan ataganlar. Saroy qadimgi turkiy qabilalardan biri. Oqsaroy, qirg‘izsaroy, qipchsoqsaroy, ilamjisaroy, jomonsaroy, chemsaroy, jolong‘ochsaroy qabi bo‘limlari bor. Saroy so‘zining etimologiyasi haqida ma‘lumotlar aniqlanmagan.

Arabon, Arablar, Arabxona – ushbu hududlarda yashagan arablar keyinchalik o’sha yerda o’troqlashib qolganlar va manzilgohlar shu urug’lar nomi bilan atalib kelgan. Buxoro viloyati hududida arab so’zi ishtirokidagi qishloq, mahalla, guzar, ariq, va boshqa tur joylar ko’plab uchraydi. Viloyat hududidagi arablar istiqomat qiladigan aholi punktlarida quyidagi tur arablar mavjud:

- 1) arab tilini bilmaydigan, qarluq lahjasida gaplashadigan arablar;
- 2) arab tilini biladigan, o’zbekcha so’zlashadigan, tojik tilini bilmaydigan arablar;
- 3) arab va tojik tilini bilmaydigan, o’zbekcha so’zlashadigan arablar;
- 4) arab tilini bilmaydigan tojik va o’zbek tillarida so’zlashadigan arablar.

So’nggi ikki tur arablar yashaydigan aholi punktlari Arabxona deb ataladi.

Minglar – minglar o’zbeklarning 92 urug’idan eng kattasi hisoblanadi. Bu qishloq ushbu urug’ nomi bilan atalgan. Ba’zi manbalarda ming qabilasining nomi ming raqami (1000) bilan bog’liqligi qayd etilgan. Qabilaning ming so’zi bilan atalishi noaniq. Uzoq o’tmishda ming soni eng katta miqdorni anglatgan. Ming urug’i turkiy qabilalar orasida eng yirigi bo’lganligi sababli ham shu so’z ishlatilgan bo’lishi mumkin.

Qirg’izon – bu yerda ham o’zbek urug’laridan biri qirg’iz qavmining yashaganligidan dalolat beradi. Shu bois manzilni Qirg’izlar qishlog’i deb ataganlar. O’zbek xalqi tarkibida yaxlit qirg’iz urug’i va turli qabila, urug’lar tarkibida qirg’iz degan urug’, urug’ tarmog’i borligi ma’lum.

Qo’ng’irot – qo’ng’irot o’zbeklar 92 urug’idan birining nomini bildiradi. Demak, bu yerda qo’ng’irot qavmi zurriyodlari manzil qurgan. Qishloqni ham shu nom bilan ataganlar. Ba’zan qo’ng’irot so’zining “qo’ng’irot tusli ot mingan kishi” bilan bog’laydilar. Ayrim olimlar qo’ng’irot so’zining qo’ng’irot so’zini qo’ng’ir ot totemi bilan aloqador deb hisoblagan. Prof. T.Nafasov qo’ng’irot so’zini hozirgi mo’g’ul tilidagi xeree – qarg’a, buryat-mo’g’ul tilidagi gerey – qarg’a so’zidan kelib chiqqan deb hisoblaydi [29a, 396]. Qarg’aga topinuvchilar – qo’ng’irot: qush nomi → totem nomi → urug’ nomi → qishloq nomi.

Qatag’on – qatag’on ham o’zbek urug’laridan birining nomi bo’lib, bu qavm Afg’onistondan Markaziy Osiyoga ko’chib kelgan. Qishloqda ulus avlodlari yashagani bois Qatag’on nomi berilgan. O’zbek xalqi tarkibidagi qadimiy, yirik qabilalardan biri. Qozoq va qirg’izlarda ham qatag’an qabilasi bor. Qatag’anlar o’zbek tilining qarluq lahjasida gaplashgan.

Tumandagi ayrim etnotoponimlar qo’shma tarkibli bo’lib, ular ikki asosdan tashkil topgan. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: Arabsaroy , Miyona Arabxona, Poyon Arabxona, Boloarabxona, O’rta Arablar, Katta Arablar, Kichik Arablar, Toshloq Arabxona, Sharqiy O’zbekon, Bahrinobod, Qipchoq Chorrabot, Yuqori Qatag’an, Katta Saroy, Yuqori Qipchoq, Kichik Saroy, Quyi Nayman, Xargo’sh Nayman, O’ba kulolon, Sharqiy Qatag’on, Yuqori Saroy kabi.

Xulosa qiladigan bo’lsak, etnotoponimlarning ma’nosini talqin etish borasida ancha munozarali tomonlar bor. Ba’zi ishlarda etnotoponimning (toponimning) ma’no va

etimologiyasi deb, uning negizida yotgan etnonimning ma'no va etimologiyasi talqin qilinadi. Bunga qo'shilish qiyin. Aslida, etnotoponimlarning ma'nosi soddadir, ya'ni har qanday etnotoponim o'zi mansub bo'lgan hududda o'tishda etnonimda ifodalangan etnik guruh yashagani yoki ularning avlodi hozirda yashayotgani haqida darak beradi. Buni tarixiy faktlar ham asoslaydi

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2005. – Б.63-65.
2. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Т.: Наврўз, 2017. – Б.8.
3. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати (Ўзбекистоннинг жанубий районлари). – Т.: Ўқитувчи, 1988. – 135 б.
4. Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи Дўсимов, 1977. – Б.48
5. Найимов С. Бухоро вилояти жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Бухоро, 1997. – Б.14.
6. Хайруллойева М.О. xalq, millat, qavm, urug' nomiga asoslangan toponimlar (Buxoro Viloyati Vobkent tumani misolida). Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 1(4), 835–839. Retrieved from <https://www.2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/354> May 29.2022.